

SUD - HUQUQ ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHDA INSON HUQUQLARI MADANIYATINI YUKSALTIRISH MUAMMOLARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosatining tarkibiy qismi inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish bilan uzviy bog'liq. Inson huquqlari madaniyatini shakllantirmasdan mustaqil demokratik taraqqiyotga erishish mushkul masaladir. Taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning ham asl mohiyati, inson huquqlari, ustuvor jamiyat va davlat barpo etishdir. Inson huquqlari davlat suvereniteti g'oyalari bilan hamohangdir. Inson huquqlari himoyasi nafaqat hozirgi, balki, kelajak avlod oldidagi yuksak ma'suliyatni anglash ham demakdir. Inson huquqlari madaniyati ma'no va mazmuniga ko'ra, juda keng teran tushuncha bo'lib, jamiyatda demokratik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning o'zagidir. Inson huquqlari madaniyati keng ma'noda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va qonunchilikni rivojlantirish borasidagi islohotlarning amaliy ifodasini o'z ichiga qamrab oladi. Har qanday islohotning zahirida ham insonning munosib hayot kechirishlarini ta'minlash g'oyasini amalga oshirish mujassamlashgan. Inson huquqlari madaniyati tom ma'noda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Birinchi navbatda inson, uning ehtiyoji va talablari, jismoniy va ma'naviy yuksalish respublikada bo'lajak milliy – davlat va ijtimoiy – iqtisodiy siyosatning markazida bo'lishi shart"¹.

Demokratik taraqqiyot konsepsiyasining maqsadi barchani havasini keltiradigan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat. Yangi jamiyatning asosiy belgisi inson huquqlari ustuvorligiga asoslanib kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Mustaqillikka erishish tufayli fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qadr – qimmat va daxlsizligini ro'yobga chiqarishning imkoniyati yaratildi. Hayotimizga inson huquqi madaniyati degan yangi tushuncha kirib kelganligi ham mustaqillikning buyuk ne'matidir. Inson huquqi madaniyati nafaqat milliy balki umuminsoniy qadriyatdir. Shu bois inson huquqlari, erkinliklarini himoya qilishga doir xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar va kelishuvlarning ahamiyati beqiyosdir. Inson huquqlariga oid umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari uni himoya qilishning ustuvor asosidir. Davlat va jamiyat inson

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, 2011. 156-b.

huquqlarini ro'yobga chiqarishga ma'suldir. Chunki, insonsiz davlat va jamiyatni ham tasavvur etib bo'lmaydi. Insonning davlat va jamiyat bilan aloqadorligi uning hayotida faol ishtirokida ham yorqin namoyon bo'ladi. Inson huquqi madaniyati keng ma'noda shaxsning davlat, jamiyat o'rtasidagi munosabatlarini ham keltirib chiqaradi. Inson huquqi madaniyatining tub mohiyati qonun bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarini to'liq amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi, ularning ijtimoiy hayotda siyosiy - huquqiy faolligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Inson huquqi madaniyati uni amalga oshirish va himoya qilishning muhim vositasidir.

Inson huquqi madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq masalalar demokratik jamiyatda har doim ham dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunning talabi esa shunday: "... biz doim odamlarimizning eskicha psixologiyasini o'zgartirib ularda yangi huquqiy ongni shakllantirmog'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir ishni inson erkinliklari – ayni vaqtda muayyan burch: majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur his etib tursin"². Inson huquqlari madaniyati muammosi hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari bu butun insoniyatning intilishlari, orzu – umidlarini ijtimoiy hayotda qaror toptirish bilan bog'liq keng qamrovga ega bo'lgan demokratik qadriyatdir.

Inson huquqi madaniyatining umumiy andozalari quyidagi qoidalar bilan tavsiflanadi: Birinchidan, demokratiya va inson huquqlari hamda erkinlarini tan olish va himoya qilish – bu davlat majburiyatidir; Ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklari kafolati xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi; Uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqlidir, ya'ni tabiiy huquq g'oyasi nazariyasi e'tirof etilishi; To'rtinchidan, hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqligi; Beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etilganligi; Oltinchidan, fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi; Yettinchidan, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxs huquqlarini buzmasligi.

Hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi demokratiya va inson huquqlariga oid qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlariga inson huquqlarini to'la amalga oshirishning huquqiy kafolatlarini ta'minlash; konstitutsiyaviy sudlovni rivojlantirish; inson huquqlariga oid xalqaro milliy institutlarni shakllantirish; yangi demokratik institutlarni, jumladan Ombudsman institutini taraqqiy ettirish kiradi.³ Konstitutsiya va inson huquqlariga oid qonun normalarini bilmaslik inson huquqi madaniyatini yuksaltirishga yordam bermaydi. Inson huquqining buzilishi shaxs, jamiyat va davlat oldida turgan muhim majburiyatdir. Qonuniylik inson

² Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. – T., O'zbekiston, 1996. 25-b.

³ Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq va inson huquqlari: tarixiy huquqiy lavhalar, - T., Adolat, 1998. 19-21-betlar.

huquqi madaniyatining ajralmas qismidir. Kuchli huquqiy davlatni barpo etishga qonuniylikni ta'minlamasdan va inson huquqi madaniyatini yuksaltirmasdan erishib bo'lmaydi.

Ayni ma'noda inson huquqi jamiyat va davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir. Jamiyat va davlat o'z fuqarolariga qanchalik keng huquq va erkinliklarini bersa, shunchalik rivoj topadi va farovonlikka erishish ta'minlanadi. O'zbekiston inson huquqlariga oid 100 ga yaqin xalqaro hujjatlarga qo'shilgan holda inson huquq va erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilish uchun zarur tashkiliy – huquqiy sharoitlarni yaratish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni sobitqadamlik bilan bajarib kelmoqda. Eng muhimi, inson huquqlari himoyasini ta'minlashda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari bilan bir qatorda Konstitutsiya, qonunlar va milliy qadriyatlarning roli beqiyosdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmaslik shart. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti - harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir. Xotin - qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Inson huquqlari madaniyati birinchidan, jamiyat va davlatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishning eng muhim vositasi va g'oyatda zarur sharti hisoblanadi. Ikkinchidan, inson ijtimoiy guruhlar va jamiyatning umuman konstitutsiyaviy - huquqiy institutlarga tegishlicha munosabatda bo'lishlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, shaxsning fuqarolik fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. To'rtinchidan, huquqiy ong buzilishi va huquqiy nigilizimni bartaraf etishning muhim vositasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Beshinchidan, inson huquqlarini himoya qilishning konstitutsiyaviy munosabatini o'zgartiradi, undan foydalanish ko'niklmalarini samaradorligiga ishonchini shakllantiradi.

Inson huquqi madaniyati juda keng qamrovli tushuncha bo'lib bunday oliy umuminsoniy madaniyatni shakllantirish ular xavfsizligini ta'minlashning g'oyatda muhim kafolatidir. Shaxs xavfsizligini ta'minlamasdan turib, inson huquqi madaniyatini yuksaltirib bo'lmaydi. Shu bois inson huquqi madaniyatini yuksaltirishda shaxsning xavfsizlikka bo'lgan huquqini ta'minlash choralarini ko'rish jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda inson huquqi madaniyatini yuksaltirishning ta'minlanishi demokratik taraqqiyotga erishishning muhim omili bo'lib hizmat qiladi.